

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROVA NIGORA NASILLOYEVNA**

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM  
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyası  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)on pedagogical  
sciences**

**Safarova Nigora Nasilloyevna**

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini  
zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida takomillashtirish ..... 3

**Сафарова Нигора Насиллоевна**

Совершенствование методики развития профессиональной компетентности  
будущих учителей с помощью современных образовательных технологий.. 21

**Safarova Nigora Nasilloyevna**

Improving methods for developing professional competence of future teachers  
using digital educational technologies ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROVA NIGORA NASILLOYEVNA**

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM  
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/Ped5133 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bazarova Saodat Jamalovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Panjiev Samijon Alijonovich**  
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro dalat universiteti huzuridagi Ph.D.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 202\_\_ yil “\_\_\_“\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro dalat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 20 \_\_ yil “\_\_\_“\_\_\_\_ da tarqatildi.

(20\_\_ yil “\_\_\_“\_\_\_\_da \_\_ – raqamli reestr bayonomasi).

**S.Q. Qahhorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**U.H. Hayitov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD)

**S.J. Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda oliv ta’lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori sifatli bilim berish va sohalarda raqobatbardosh kadrlar faoliyatini ta’minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalardan samarali va o‘rinli foydalanish jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Germaniya, Italiya kabi ta’lim tizimi rivojlangan davlatlarda zamonaviy texnologiyalar asosida talabalar o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirish muammolari fan va ta’lim tizimini raqamlashtirish bilan birga parallel tarzda rivojlanmoqda. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar qidirilmoqda va jahon andozalariga mos keladigan ta’lim texnologiyalaridan biri sifatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali keng jamoatchilik auditoriyasini qamrab olish orqali malakali mutaxassis-kadrlarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

Dunyoda ta’limning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda eng ilg‘or zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash asnosida raqamli ta’limga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Google, Microsoft, WebSoft, Moodle kabi kompaniyalar zamonaviy ta’lim siyosatidagi bunday global o‘zgarishlarni ta’lim oluvchining talabi nuqtai nazaridan kelib chiqib tashkil etish va amalga oshirish hamda takomillashtirish masalalarini tadqiq etishmoqda. Dunyoda yangi zamonaviy ta’lim tizimi shakllanayotgan bir davrda raqamli texnologiyalardan bu jarayondagi eng muhim vazifani bajarishga mo‘ljallangan ob’yekt sifatida, shuningdek, virtual aloqani ommalashtirish, geografik joylashuvi hamda tilidan qat’iy nazar raqamli aloqa tezligi va erkinligini ta’minlash ob’yekti sifatida samarali foydalanish masalasini ilmiy hal etish zarur bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiyalash uchun rivojlangan davlatlarning nufuzli oliv ta’lim muassasalari filiallari, qo‘shma fakultetlari, qo‘shma ta’lim dasturlari tashkil etilmoqda hamda ularning moddiy texnik bazasi yaratilmoqda. Bu borada oliv ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim standartlari asosida oliv malakali pedagogic kadrlarni tayyorlash maqsadida zamon talablariga javob beruvchi, o‘qitish jarayonida dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish, ta’lim sohasini tubdan raqamlashtirish va keng joriy etish orqali bilimli, intelektual salohiyatlari va yuksak ma’naviyatlari yoshlarni tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi PF-5847-sodan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>1</sup>, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sodan “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sodan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sodli Farmoni.

to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 2023-yil 22-fevraldagi “Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lамини yanada oshirish vazifa va rejalar” bag‘ishlangan videosellektor yig‘ilishi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Respublikamiz olimlaridan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish va qo‘llash usullari bo‘yicha A.Abduqodirov, U.Begimqulov, M.E.Mamarajabov, G.J.Abilova, A.R.Jo‘rayev, G.Ergashyeva kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati N.A.Muslimov, M.H.Lutfillayev F.M.Zakirova, D.N.Mamatov, J.E.Usarovning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. Kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash, kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga oid yondashuvlar, axborot kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati bo‘yicha A.M.Magrupov Y.M.Asadov, O.A.Qo‘ysinov, M.M.Vahobov va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta’lim vositalar orqali mobil ta’limdan foydalanish masalalari T.S.Zeleneskaya, A.V.Xutorskoy, I.G.Zaxarova, M. I. Stankin, M.V.Shustova, N.V.Uysimbaeva, M.D.Ilyazova, M.T.Gromkova, Ye.I.Isayev, V.G.Krisko, A.M.Novikov, Yu.P.Pavarenkov, N.A.Rakova, A.I.Chmil, J.Reyna, E.N.Ilyasova, G.A.Atanov, L.G.Filippova, V.V.Sidorenko, D.S.Ermakov, Z.A.Fedoseeva kabilarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq qilingan.

Xorijiy tadqiqotlarda kompetentlik va kompetensiyalarga oid qobiliyatlar A.Cropley, J.Bishop, M. Milton, B. Williamson, S. Iftahar, Al-Maroof, J. Reyna, K.R. Heggart, R.J.M. Ventayen, K.Elizabet, C.K.Pathak, R.S.Yadav, S.Whiddet, A.Maslou, T.G.Vezirov, M.Sharples, S.Hollyforde kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ta’lim tizimini kompleks raqamlashtirish chora-tadbirlari” (2022-2026) yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlili asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida zamonaviy texnologiyalarning yaxlitlik, ilmiylik, integrativlik va variativlik prinsiplariga ustivorlik berish tizimini aniqlashtirish;

talabalarning kasbiy kompetentligini sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy ta’lim vositalari, mobil ilovalardan foydalanib talabalarning bilishga bo‘lgan intuitsiyasi va bilimlarini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayoniga oid o‘quv-metodik ta’midot sifatida modellashtiruvchi, o‘rgatuvchi, zamonaviy ta’lim vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan pedagogik faoliyat modelini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassalari talabalarning kasbiy kompetentligini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning kompetensiyaviy yondashuv darajasini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini ergonomik, didaktik, metodik talablarini integrasiyalash orqali takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi zamonaviy ta’lim vositalari asosida rivojlantirish jarayoni belgilangan bo`lib, unda Buxoro, Qarshi va Termiz davlat universitetlaridan 439 nafar talabalar respondent sifatida jalg qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini zamonaviy ta’lim vositalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakli, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarining o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy bilimlarini shakllantirishning asosiy talablari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari innovatsion yondashuvlarning dasturiy tendensiyalari asosida o‘qitishning metodik imkoniyatlari integrativ ta’siri zamonaviy texnologiyalarning yaxlitlik, ilmiylik, integrativlik va variativlik prinsiplariga ustivorlik berish tizimi aniqlashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini liberallik tamoyili orqali rivojlantirish, intuitiv-vizual dasturlash muhitini ta’lim jarayoniga adaptatsiyasini tizimli rivojlantirishda mobil ta’lim uchun “Android” tizimida ishlovchi ilovalarni tadbiq etish orqali “Cloud” texnologiyasi, “Rezi” bilimlarini rivojlantirilish metodlari mazmunan singdirish orqali takomillashtirilgan;

innovatsion ta’lim metodlarining pozitsion imkoniyatlari ta’lim jarayonida foydalanuvchi interfeysi yaratuvchi kvalimetrik parametrлarning prognostik xususiyatlari va dinamik harakatlar tizimi mobil dasturiy ilova, manipulyativ, imperativ, motivatsiyani vujudga keltirish, mantiqiy fikrlashning sun’iy intellektga

asoslangan zamonaviy texnologiyalariga ustuvorlik berish hamda pedagogik faoliyat modeli komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning kompetensiyaviy yondashuv darajasini shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari baholash mezonlari, mobil dasturiy ilovalar funksional imkoniyatlarini integrasiyalash asosida o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta'lim vositalari hamda mobil ilovalar yordamida shakllantirishning zamonaviy konseptsiyasi, amaliyat, yaxlitlik, mustaqillashuv, harakat elementlaridan foydalanish, funksional amallar ketma-ketligi trayektoriyasi mazmuniga oid takliflarni qamrab olgan "Tenglamalar va ularni yechish usullari" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

mutaxassislik fanlaridan dars mashg`ulotlarini zamonaviy ta'lim vositalari yordamida kasbiy faoliyatga yo'naltirib tashkil etish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan ta'lim uchun o'quv-metodik (matnli, video va animatsiya) ta'minot ishlab chiqilgan;

zamonaviy texnologiyalar asosida talabalarning axborot kommunikatsion konpetensiyalarining rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va obyektiv baholash, dasturiy ta'minot asosida nazorat qilish imkonini beruvchi "Pedagogik kompetentlik va kreativlik" nomli uslubiy qo'llanma hamda mutaxassislik fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim muhitini hosil qiluvchi mobil ta'lim va elektron axborot resurslar xizmatidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga oid "Matematikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" nomli o'quv-metodik qo'llanma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyatga joriy etilgani, olingen natjalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy texnologiyalarning mobil ta'limi asosida mutaxassislik fanlaridan talabalarning texnik vositalar bilan ishlash malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'qitish metodikasi takomillashtirilganligi, mobil ilova orqali ta'limda mashg`ulotlar loyihasidan foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini mutaxassislik fanlaridan talabalarning zamonaviy ta'lim axborot resursining Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari asosida bilimlar majmuasini rivojlantirish, interfaol ta'lim muhitini yaratishning metodik tizimini takomillashtirish hamda ixtisoslik fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy ta'lim vositalari asosida o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natjalari asosida:

oliy ta’lim muassasalarining o‘qitish jarayonida talabalarda kasbiy bilimlarini shakllantirishning asosiy talablari va o‘zlashtirirsh ko‘rsatkichlari innovatsion yondashuvlarning dasturiy tendensiyalari asosida o‘qitishning metodik imkoniyatlari integrativ ta’siri zamonaviy texnologiyalarning yaxlitlik, ilmiylik, integrativlik va variativlik prinsiplariga ustivorlik berishga doir xulosalar “Tenglamalar va ularni yechish usullari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи, 391-sonli buyrug‘i, 391289 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlashda talabalarga mazkur fanlarni o‘qitishda bilim berishning samarali usul, shakl, vositalarini aniqlash va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini liberallik tamoyili orqali rivojlantirish, intuitiv-vizual dasturlash muhitini ta’lim jarayoniga adaptatsiyasini tizimli rivojlantirishda mobil ta’lim uchun “Android” tizimida ishlovchi ilovalarni tadbiq etish orqali “Cloud” texnologiyasi, “Rezi” bilimlarini rivojlantirish metodlarini mazmunan singdirish mazmuni hamda innovatsion ta’lim metodlarining pozitsion imkoniyatlari ta’lim jarayonida foydalanuvchi interfeysini yaratuvchi kvalimetrik parametrlarning prognostik xususiyatlari va dinamik harakatlar tizimi mobil dasturiy ilova, manipulyativ, imperativ, motivatsiyani vujudga keltirish, mantiqiy fikrlashning sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy texnologiyalariga ustuvorlik berish hamda pedagogik faoliyat modeli komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Jizzax politexnika institutining OT-F1-049 raqamli “Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2017-2021 yy.) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2023-yil 21-dekabrdagi 03-2873-2821-son ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim muaasasalarini talabalarining dars va darsdan tashqari ta’lim jarayoni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga oid motivatsiyalari rivojlantirilgan;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning kompetensiyaviy yondashuv darajasini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari baholash mezonlari, mobil dasturiy ilovalar funksional imkoniyatlarini integrasiyalash asosida o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga oid takliflardan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining AIF-2/20 raqamli “Shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo‘nalishlar bo‘yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o‘qituvchilar malakasini oshirish sifatini yaxshilash” (2019-2021 yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasining 2-komponenti “Talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga tadbiq etish” va 4- komponenti “Ta’lim natijalarini baholash tizimini xalqaro standartlash asosida takomillashtirish” qismini bajarishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligining 2023-yil 19-dekabrdagi 01-01/4662-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini mobil dasturiy ilovalardan foydalanib takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 24 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida 1 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiyligi 135 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishga doir darslik, o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar tahlil qilingan va zaruriy xulosalarga kelangan. Ularda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitish texnologiyalari va loyihalash darslarini tashkil etishning mazmuni, vositalari va darslarni tashkil qilishda zamonaviy ta'lif vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga doir nazariy ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, "zamonaviy ta'lif" va "raqamlı ta'lif texnologiyasi" kabi tushunchalarga berilgan ta'riflar tahlil etilgan.

Talabalarni o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlash, ongli va mustaqil fikr yuritishi uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lif jarayoni samaradorligining ta'sirchan vositalari va usullarini tatbiq etishga hamda tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu oliy ta'lif tizimining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lif muassasalarida fanlarni o'qitishni takomillashtirgan holda samaradorlikni oshirish orqali zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga muayyan maqsadga yo'naltirib o'qitish ta'lifning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lif barcha sohalar kabi tezkorlikni, shiddatli o'zgarishlarga qisqa muddatlarda samarali moslashishni, yangi bilimlarni mavjud fanlar negiziga faol singdirishni, ta'lif oluvchilarni ular bilan izchil-

tanishtirib borishni taqozo etadi. Bunda malakali, raqobatga bardoshli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, samarali ta’lim hududini yaratishga qaratilgan Bolonya shartnomasiga a’zo davlatlar qatoridan o‘rin olish kutilayotgan natijani qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda ularning bir-biridan sezilarli darajadagi har xil ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi. Bunday ko‘rsatkichlar pedagogika nazariyasida “individual yondashish prinsipi” deb o‘z aksini topgan bo‘lib, ular turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Ilmiy va metodik adabiyotlarni tahlil qilish natijasi, har bir aniq holatda “Ta’limni yakkalashtirish” tushunchasining mazmuni, uning maqsadi va vositalariga bog‘liqligini ko‘rsatadi (1-rasmga qarang).



### **1-rasm. Ta'limda yakkalashtirish maqsadlari**

Ma’lumki, rivojlantiruvchi ta’lim pedagogikada markaziy o‘rin egallovchi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u o‘qitishning qaysi usullarida talabaning aqliy rivojlanishini ko‘proq va qaysi usullarida kamroq darajada belgilanishi masalalari bilan shug‘ullanadi.

Ushbu kompetensiya bilim va ko‘nikmalardan kollektiv rivojlanish vositalari bilan birga ishlashga, masalan, versiyalarni boshqarish tizimlari, vaziyatlardan kelib chiqib tizimlarni loyihalash vositalari va ishlab chiquvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish uchun shakllantiriladi. Boshlang‘ich kurslarda biz talabalarga o‘quv materiallarini tushuntirish va ajratish, guruh a’zolarini o‘qitish talaba uchun juda foydali ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin, ayniqsa, bu o‘quv materialini o‘zlashtirishning eng samarali va foydali usuli hisoblanadi.

Talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – talaba yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi lozimdir.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘z ifodasini topgan.

A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligini qayd etadi (2-rasmga qarang).



## 2-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari

Tadqiqot davomida muhandis-texnolog mutaxassisligiga oid maxsus kompetensiyaga qo‘yilayotgan talabalar tizimini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. Bular quyidagilardan iborat: Texnikaga qiziqish va kuzatuvchanlik, texnik eshitish, texnik chamlash, grafikaviy tasavvurlash, texnik tafakkurlash, texnikani boshqarish, texnik tashxislash, ijodiy yondashuv, novatorlik bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorining shakllanishi kuchli raqobatbardosh, o‘z sohasini chuqr egallagan, kasbiy kompetentlik darajasi yuqori bo‘lgan mutaxassislarni yetishtirishni taqazo etadi.

Yuqorida fikr va mulohazalardan kelib chiqib, amaliy mashg‘ulotlarda katta ma’lumotlarni tahlil qilishda matematikaga taalluqli bo‘lgan masalalar ishlab chiqish va talabalar bilan muhokama qilish bo‘lajak mutaxassislaring kompetentligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi. Amaliy mashg‘ulotlarda kasbga yo‘naltirilgan masalalarni yechish nafaqat fanni chuqr o‘rganishga olib keladi, shuningdek, talabalarda axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borishning dastlabki ko‘nikmasini ham yaratadi. Bu esa ta’lim samaradorligini yanada oshirishga imkoniyat yaratadi.


Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida takomillashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonining elektron-dasturiy va metodik ta’minoti, amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning takomillashtirilgan metodikasi asosida dars mashg‘ulotlarining innovatsion ishlanmalari orqali o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalarni umumkasbiy fanlari bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarning dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlashning modelini takomillashtirishga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Oliy ta’lim muassasalari talabalariga umumkasbiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar asosida virtual sinfni tashkil etish va undan foydalanish asosan quyidagi 4 (to‘rt) muammoni bartaraf etishga:

- talabalar fanga ajratilgan mustaqil ta’lim mavzularini individual ravishda o‘zlashtira olishi;
- ta’lim olish jarayonida ularda masofa va vaqt chegaralari bo‘lmasligini ta’kidlash;
- foydalanuvchilar uchun masofaviy ta’lim odatdagidan ko‘ra qiziqarliligi;
- fanning virtual sinfidan foydalanish bo‘yicha alohida mobil ilovaning mavjudligiga e’tibor qaratilgan.

Yuqoridagi muammolar bartaraf etilganda, fan bo‘yicha mavzularni zamonaviy ta’lim beruvchi professor - o‘qituvchilar dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan yanada samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Ma’lumki, ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ilm-fan rivojlanishini jadallashtirdi va o‘qitishda yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni quyidagi uchta didaktik darajaga ajratish mumkin (3-rasmga qarang).



### **3-rasm. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishni didaktik darajaga ajratish**

Ta’lim jarayoni samaradorligi- o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘yilgan maqsad va erishilgan natija o‘rtasidagi farqdir. Ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsad va erishilgan natija o‘rtasidagi tafovut qancha kam bo‘lsa, ta’lim shuncha samarali sanaladi.

Hozirgi kunda respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarda oz vaqt va kam mablag‘ sarflab ta’limning samaradorligini oshirish eng dolzarb muammo sanaladi.


Ta’lim samaradorligini oshirishning ikki xil ko‘rsatkichi mavjud:

*Samaradorlikning sifat ko‘rsatkichlari* ma’lum mazmunni va faoliyat usullarini egallash shartlarga ko‘ra aniqlanib, u quyidagilarni ichiga oladi:

- o‘quv-tarbiya ishlarini shaxsning eng yuqori darajadagi taraqqiyotini mo‘ljallab tashkil etish;
- ta’lim jarayoni maqsadi va natijasi o‘rtasidagi tafovutni uzlusiz kamaytirish;
- ta’lim vositalarining ta’lim jarayoniga mosligini ta’minlash;
- o‘quv materiali va faoliyat usullarini bir paytda (parallel ravishda) o‘zlashtirish.

*Samaradorlikning miqdor ko'rsatkichlari esa ta'lif maqsadi hamda o'quvchilar erishgan haqiqiy bilim, malaka va taraqqiyot o'rtasidagi farqlarga ko'ra aniqlanadi.*

Oliy ta'lif muassasalari yo'naliشining o'quv rejasidagi umumkasbiy fanlar blokidagi mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanidan mobil dastur talabalarning mustaqil ta'lif olish imkoniyatini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqildi va amaliyatga joriy qilinib, talabalar va soha mutaxassislariga foydalanish uchun tavsiya qilingan (4-rasmga qarang).



#### **4-rasm. Mutaxassislik fanlaridan mobil ilova dasturining sxematik ko'rinishi**


Yuqorida keltirilgan nazariy asoslardan kelib chiqib, mutaxassislik fanlarining asosiy komponentalarini o'z ichiga olgan mobil dastur foydalanuvchining shaxsiy smartfoniga o'rnatiladi. Bu esa ularning dars va darsdan

tashqari mustaqil ta’lim jarayonida bo‘sh vaqtlarini samarali va sermazmun tashkil etish imkonini beradi.

Mutaxassislik fanlarining mobil ilovasi o‘rnatilgach, smartfonimizning oynasida ilovaning bosh sahifasi namoyon bo‘ladi belgilangan tartib bo‘yicha ilovaga kirish mumkin.

Foydalanuvchi oynasida kirish, mavzular, mashg‘ulotlar bo‘yicha topshiriqlar, har bir mavzu bo‘yicha test nazorati, adabiyotlar va muallif haqidagi bo‘limlar namoyon bo‘ladi.


Kirish qismida ushbu fan haqida ma’lumotlar bilan tanishtirib o‘tiladi. Mavzular bo‘limiga kirilgach, har bir ma’ruza mashg‘ulotlari alohida ajratilgan va har bir mavzu reja asosida mashg‘ulotlar mazmuni to‘liq, tushunarli va sodda qilib ochib berilgan (5-rasmga qarang).



##### **5 - rasm. Mutaxassislik fanlarini mobil ilova dasturining ko‘rinish holati**

Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, talabalarining kasbiy kompetentligini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi.

Modelda asosiy maqsad mutaxassislik fanlari doirasida talabalarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda o‘qitishni takomillashtirish mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan (6-rasmga qarang).



**6-rasm. Mutaxassislik fanlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli**

Model (Davlat ta’lim standarti va malaka talablari asosida talabalarini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda o‘qitish metodikasini takomillashtirish mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish), tashkiliy komponent (Motivatsion komponent, Maqsadga muvofiqlik komponenti, Mazmunli operatsion) kabi komponentlardan iborat bo‘lib, jarayonli komponent (talabalarining kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish), faoliyat mezonlari (Motivatsion, kognitiv, faoliyatli, kreativ), faoliyat darajalari (A’lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz), natija komponentlaridan tashkil topgan. Model asosida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishish mumkin.

Talabalarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda o‘qitishni takomillashtirish tashkiliy komponentlari quyidagilardan:

1) Motivatsion komponent, 2) Maqsadga muvofiqlik komponenti, 3) Mazmunli operatsion komponentdan iborat bo‘ladi.

Bugungi kungacha amalga oshirgan olimlarning tadqiqot ishlaridagi yondashuvlari va xulosalaridan kelib chiqib, mazkur tadqiqot muammosiga mualliflik yondashuvi quyidagicha izohlandi: oliv ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida ularning fikrlash darjasini, tanqidiy tafakkuri, kompetensiyalarini rivojlantirishda dunyonи ilmiy bilish va qaror qabul qilish qobiliyati, kasbiy faoliyatida turli masalalarni individual hal qilish va boshqa shaxsxi fazilatlar majmui.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan muammolarning yechimlardan o‘qituvchilar dars jarayonida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ta’lim usullarini qo‘llashlari natijasida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Pedagog-tajriba sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili va samaradorlik darjasini tahlili keltirilgan.

Tajriba-sinov ishida “nazorat” guruhida dars jarayoni an’anaviy shaklda tashkil qilindi. Bunday dars shaklida o‘qituvchi faol, ya’ni ma’ruza qiladi, talabalar faqat tinglovchi vazifasini bajaradi. Talabalar eshitganlarini xotirada saqlab qoladilar va yakunida berilgan savollarga javob beradilar.

“Tajriba” guruhida esa dars jarayoni zamonaviy texnologiyalar asosida noan’anaviy shaklda olib borildi. Bunda o‘qituvchi o‘tiladigan mavzuni oldindan loyihalashtirgan holda zamonaviy texnologiyalar asosida maqsadli amalga oshirdi.

Ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiya vositalari asosida umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasi samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash Buxoro davlat universiteti (BuxDU), Qarshi davlat universiteti (QarDU) hamda Termiz davlat universitet (TerDU) larining talabalariga qo‘llash orqali amalga oshirildi.

---

<sup>1</sup> Mualliflik yondashuvi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida quyidagilar aniqlandi: ta’lim oluvchilarning kreativligini rivojlanishi, ta’lim oluvchilar tomonidan umumkasbiy fanlari bo‘yicha ijodiy bilim va ko‘nikmalarning egallanishi, olingan bilim va ko‘nikmalarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olish malakasi, umumkasbiy fanlari bo‘yicha qoldiq bilimlari, talabalarning mobil dasturiy ilovalar vositasida o‘rganishga munosabati ko‘rib chiqildi.

Tajriba natijalarini statistik tahlil qilish jarayonida qo‘yilgan farazni tekshirish uchun kuzatishlar orqali va tajribalar o‘tkazish orqali aniq ma’lumotlar olinib, farazga muvofiq nazariy jihatdan kutilayotgan ma’lumotlar taqqoslanib ko‘rildi.

Mutaxassislik fanlarini mobil ta’lim asosida o‘qitish metodikasini qo‘llash orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi faoliyati tajriba - sinov ishlari yordamida aniqlandi. Talabalarning o‘quv jarayoni faoliyatini aniqlovchi mezon sifatida mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari 100 ballik tizimda baholandi.


Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko‘rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko‘rsatkichlari K.Pirsonning  $\chi^2$  mezoni asosida o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalar haqidagi datlabki va yakuniy natijalar o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligi uchun olingan test va topshiriqlar orqali aniqlandi va talabalar bilim darajasining yakuniy tahlil natijalari quyidagicha ifodalandi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**  
**Oliy ta’lim muassasalari talabalarining tajriba-sinov ishlari natijalari**

OTM	Ko‘rsatkichi	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%	Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%
OTM lar bo‘yicha jami	A’lo	11	5	30	14	6	3	5	3
	Yaxshi	100	45	138	64	97	45	115	54
	Qoniqarli	103	46	54	22	100	46	90	41
	Qoniqarsiz	9	4	1	0	13	6	6	2
<b>Jami:</b>		<b>223</b>	<b>100</b>	<b>223</b>	<b>100</b>	<b>216</b>	<b>100</b>	<b>216</b>	<b>100</b>

Demak, tavsiya etilayotgan metodika samarali ekanligi, bu esa  $H_1$  gipotezani qabul qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Ya’ni tajriba va nazorat guruhlarda tajriba-sinov o‘tkazildan keyin talabalarning bilim darajalarida katta o‘zgarish seziladi. Uchala ta’lim muassasidagi jami natijalardan bizga, tajriba guruhidagi ko‘rsatkichlar nazorat guruhidagiga nisbatan 11% ( $1,11 - 1,00 = 0,11$ ) yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi (7-rasmga qarang).



### **7-rasm. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi**

Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko'rinish turibdiki, o'quv mashg'ulotlari bo'yicha zamnaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarning ko'nikma va malakalarining shakllanganlik ko'rsatkichlari 11% ga oshganligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining holati shuni ko'rsatadi, dars jarayonlarini raqamlashtirish, talabalarning bilim darajalarini oshiribgina qolmay dars jarayonlarining sifatini oshishiga xizmat qiladi.

## **XULOSALAR**

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini zamnaviy ta'lim texnologiyalari vositasida takomillashtirish muammolariga qaratilgan izlanishlar quyidagi xulosalarni qilish imkonini berdi:

1. Dissertatsiya ishining nazariy qismida tadqiqot ishining asosi hisoblangan zamnaviy ta'lim vositalari tushunchalari borasida xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'sligi davlatlari hamda respublikamiz olimlari tomonidan bildirilgan turli fikr va mulohazalar tahlil qilindi va mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi.

2. Zamnaviy texnologiya vositalaridan o'quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari, ya'ni talabalarni faol bo'lish va tanqidiy fikrlashga undash, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga, nazariy bilimlarni amaliyatga qo'llashni o'rganishga yo'naltirish, olgan bilimlarni o'zları baholash kabi imkoniyatlari o'rganildi, shuningdek, ularning afzalliklari va ulardan kutilayotgan ijobjiy natijalar ko'rsatib o'tildi.

3. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv jarayoniga tatbiq etilgan model bevosita talabalar tomonidan o'zlashtirishlari qiyin bo'lgan va ko'z bilan kuzatish imkoniyati bo'lмаган jarayonlarni zamnaviy texnologiya vositalari asosida tizimli materiallar tarzida namoyish etish imkonini beradi.

4. O‘qituvchilarning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentliligini rivojlantirishda masofaviy ta’lim imkoniyatlari hamda potensiali didaktik shartlarga yo‘naltirilgan tayanch kompetensiyalari matritsasini (mazmun komponentlari, tashxislanadigan ko‘rsatgichlar) tuzish asosida nazariy-metodika nuqtai nazaridan aniqlashtirildi.

5. Virtual-integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida takomillashtirilgan modeli: o‘qituvchilarning samarali kasbiy rivojlanishiga imkon beruvchi shakl, usul va vositalardan iborat metodik tizimning tashkiliy komponentlarini (texnologik ta’milot, o‘quv faoliyati shakllari, kontent mazmuni, veb-portfolioni kuzatish) belgilash asosida ishlab chiqildi.

6. Zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanib o‘qitish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qitishda axborot kommunikatsion resurslardan foydalanish tizimini takomillashtirish va uni keng miqyosda tatbiq etish orqali talabalarda mustaqil faoliyatni amalga oshirish, jarayonlarni idrok etish, bilim o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarining dinamikasiga keng imkoniyat yaratiladi. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari, olingan statistik ishlanmalar tadqiqot dolzarbligini tasdiqlash imkonini berdi.

7. Taklif etilgan metodika talabalarda nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarini o‘zlashtirish darajasini oshirishi va sifatini yaxshilashi pedagogik tajriba natijalari asosida isbotlab berildi. O‘tkazilgan tajriba natijalari K.Pirsonning  $\chi^2$  matematik statistik mezoniga muvofiq tekshirilib, tajriba guruhidagi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatgichi nazorat guruhidagi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatgichiga nisbatan 11% oshganligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar taklif qilindi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining talabalariga fanlarni o‘qitish samaradorligini yanada oshirish maqsadida zamonaviy texnologiya vositalari asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’miloti imkoniyatlaridan kengroq foydalanish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning virtual texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentliligini rivojlantirish doimiy ravishda o‘quv seminar, tajriba almashish, vebinar, onlayn ma’ruzalar tashkil etish orqali rivojlantirish zarur.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini raqamli, virtual ta’lim texnologiyalar sohasidagi informatsion kompetentliligini rivojlantirishga qaratilgan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САФАРОВА НИГОРА НАСИЛЛОЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (педагогические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Бухара – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогике зарегистрирована за № B.2023.3.PhD/Ped5133 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан**

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете

Автореферат диссертации на трёх (узбекском, русском) языках и резюме на английском языке размещён на веб-странице Научного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet»

**Научный руководитель:**

**Жураев Хусниддин Олтинбоевич**

доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:**

**Базарова Саодат Джамаловна**

доктор педагогических наук, профессор

**Панжиев Самижон Алижонович**

доктор философии по педагогических наукам (PhD),

доцент

**Ведущая организация:**

**Навайский государственный педагогический**

**институт**

Защита диссертации состоится в \_\_\_\_\_ часов \_\_\_\_\_ 2024 года на заседании Научного совета PhD.03/30. 12.2019.Ped.72.04 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (200117, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (+99865)221-29-14; факс: (+99865) 221-27-07; [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под №.....). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (0 365) 221-25-87)

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года

(реестр протокола рассылки № \_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года

**С.К.Каххоров**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

**У.Х.Хайитов**

Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

**С.Ж.Базарова**

Заместитель председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В развитии мировой системы высшего образования стремительными темпами развивается эффективное и рациональное использование современных технологий с целью предоставления высококачественного образования с использованием информационных технологий и обеспечения конкурентоспособной кадровой деятельности в отраслях. В частности, в странах с развитой системой образования, таких как США, Великобритания, Российская Федерация, Франция, Корея, Китай, Япония, Турция, Индия, Германия, Италия, проблемы совершенствования учебно-познавательной деятельности студентов на основе современных технологий развиваются параллельно с цифровизацией науки и системы образования. Как и во всех отраслях, в системе образования ведутся поиски новых возможностей эффективной организации образовательного процесса, что требует подготовки квалифицированных специалистов-кадров, охватывающих широкую общественную аудиторию за счет использования современных технологий в качестве одной из образовательных технологий, соответствующих мировым стандартам.

В мире происходит переход к цифровому обучению на основе применения самых передовых современных технологий в обеспечении устойчивого развития образования. Такие компании, как Google, Microsoft, Websoft, Moodle, изучают вопросы организации и внедрения, а также улучшения таких глобальных изменений в современной образовательной политике с точки зрения требований получателя образования. В мире, где формируется новая современная система образования, необходимо научное решение вопроса эффективного использования цифровых технологий как объекта, призванного выполнять важнейшую задачу в этом процессе, а также как объекта популяризации виртуальной коммуникации, обеспечения скорости и свободы цифровой коммуникации независимо от географического положения и языка.

В нашей стране в последние годы для модернизации системы образования на основе современных технологий создаются филиалы, совместные факультеты, совместные образовательные программы престижных высших учебных заведений развитых стран и создается их материально-техническая база. В связи с этим в целях подготовки высококвалифицированных педагогических кадров на основе международных образовательных стандартов в высших учебных заведениях, отвечающих современным требованиям, использование в учебном процессе программных средств обучения является одной из важнейших педагогических задач по подготовке образованной, интеллектуально одаренной и высокодуховной молодежи путем развития профессиональной компетентности будущих учителей, коренной цифровизации и широкого внедрения в образовательную сферу.

Данная диссертация в определённой степени служит выполнению задач, отражённых в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об

утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 9 октября 2019 года<sup>1</sup>, № УП-6097 «Об утверждении стратегии цифровой Узбекистан-2030 и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениях № ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» от 28 апреля 2020 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в масштабных реформах, проводимых в стране» от 5 июня 2018 года, видеоселекторном совещании от 22 февраля 2023 года посвящённом "Задачам и планам дальнейшего увеличения масштабов использования цифровых технологий", а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

**Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Среди ученых нашей республики теоретические и методические основы использования современных технологий, методы создания и применения электронных информационно-образовательных ресурсов исследованы в научных трудах таких авторов, как А.Абдукодиров, У.Бегимкулов, М.Е.Мамаражабов, Г.Ж.Абилова, А.Р.Жураев, Г.Эргашева и других. Сущность компетентностного подхода в образовании рассмотрена в трудах Н.А.Муслимова, М.Х.Лутфиллаева, Ф.М.Закировой, Д.Н.Маматова, Ж.Е.Усарова. По диагностике и коррекции формирования компетенций, подходам к эффективному развитию компетенций, значимости развития информационной компетенции вели исследования такие ученые, как А.М.Магрупов, Ю.М.Асадов, О.А.Куйсинов, М.М.Вахобов и другие.

